

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, B.S.Sharipova**

Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati..... 6

**Sh.K.Xujamberdiyeva**

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni..... 11

**M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov**

Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi ..... 16

**M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova**

Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ... 23

**M.M.Yakubbayev**Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching  
german language ..... 29**J.A.Yuldashev**Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning  
metodik xususiyatlari..... 34**X.T.Nishonova**Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in  
elementary grades ..... 38**Sh.M.Robilova**

O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli..... 43

**U.S.Do'sanov**Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini  
qo'llash metodikasi..... 47**X.X.Umarov**

Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов ..... 51

**D.K.Karimov**Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от  
типов телосложения у юных акробатов ..... 55**Z.G.Gapparov**

Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании ..... 61

**M.N.Nasritdinova**Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini  
rivojlantirish..... 67**M.G.Zaylobidinova**Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning  
pedagogik omillari, Xitoy tajribasi ..... 72**D.K.Baydjanova**

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni ..... 78

**I.A.Raxmonov**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni  
pedagogik muammosi..... 82

## IQTISODIYOT

**M.K.Abadov**

Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan ..... 85

## FALSAFA

**M.A.Mamatov**

So'fiylik – gumanistik ta'limot ..... 90

**Sh.O.Ahrorova**

Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni ..... 98

**D.Y.Qambarova**

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabat mezonlari ..... 102



UO'K: 373.811.512.133.8142

**INGLIZ TILI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАБОТЕ С  
ТЕКСТОМ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

**METHODOLOGY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN WORKING WITH TEXT  
IN ENGLISH CLASSES**

Kaxarova Mavlyuda Mukaramovna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, filoziya fanlari nomzodi, professor v.b.

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bugungi kun pedagoglаридан darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etish va kompyuter texnologiyalari yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lish talab etilmoqda. Mazkur maqolada ingliz tilida matn bilan ishlashtirish jarayonida foydalaniish mumkin bo'lgan internet saytlari taklif etiladi va ularni darsda qo'llash metodikasi tahlil etiladi.

**Аннотация**

Использование инновационных технологий в процессе обучения иностранному языку в современной системе образования остается требованием времени. От современных педагогов требуется организация уроков с использованием современных педагогических технологий и глубокие знания компьютерных технологий. В данной статье предлагаются сайты, которые можно использовать в процессе работы с текстом на английском языке, и анализируется методика их использования на уроке.

**Abstract**

*The use of innovative technologies in the process of teaching a foreign language in the modern education system remains to be the demand of the time. Today's pedagogues are required to organize lessons using modern pedagogical technologies and to have in-depth knowledge of computer technologies. This article offers websites that can be used in the process of working with text in English and analyzes the methodology of using them in the lesson.*

**Kalit so'zlar:** resipyent, matn, audio matn, innovatsion texnologiyalar, metod, o'qitish metodikasi, ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim.

**Ключевые слова:** реципиент, текст, аудиотекст, инновационные технологии, метод, методика обучения, образование, интегрированное образование.

**Key words:** recipient, text, audio text, innovative technologies, method, teaching methodology, education, integrated education.

**KIRISH**

Chet tilini o'rganish jarayonida matn bilan ishlashtirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarda o'rganilayotgan til yuzasidan turli kompetensiyalarni shakllantirish, ularni keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega mutaxassis sifatida tarbiyalash pedagoglардан chuqur bilim va malaka talab etadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning oliy ta'lim tizimiga, uni tubdan takomillashtirishga, kadrlar tayyorlash dasturini qayta ko'rib chiqishga, jahon standartlariga mos keladigan malakali va yetuk kadrlarni tayyorlashga bo'lgan say-harakatlari bu sohalarning yanada rivojlanishiga katta turtki bo'limoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir qaror zaminidan kelib chiqib, shuni baralla ta'kidlashimiz darkorki, bularning barchasi asosan, oliy talim xodimlari oldiga talim va tarbiyani yuqori darajaga ko'tarilishiga, millat manaviyatini va bilimdonligini yuksaltirilishiga, ta'limming insoniy-gumanitar xususiyatlari to'liq ta'minlanishiga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning jalb etilishiga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Texnologiyalar chet tillarini o'qitish va o'rganish jarayoniga samarali ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, texnologiyalar tajribalar asosida o'rganish jarayoni, talabalarning motivatsiya va qiziqishlarini oshirish, autentiv materiallardan foydalanish imkoniyatlari va o'rganilayotgan til so'zlashuvchilari hamda madaniyati bilan aloqa, ta'limi individuallashtirish, yagona axborot manbasidan mustaqil foydalanish, va keng dunyoqarashga ega bo'lish kabi omillarga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, o'quvchilarning o'qishni tushunish qobiliyatini oshirish uchun kompyuterga asoslangan semantik xaritalar yordam berishini aniqlandi (Omar, 2014).

Bundan tashqari, texnologiyalar barcha nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida ko'rildi, talabalarning eshitish, yozish va gapirish qobiliyatları ham texnologiyalar yordamida sezilarli oshirilishi mumkinligi borasida bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan (Nachoua, 2012; Xoshsima va Xazayi, 2017; Pirasteh, 2014).

Hozirgi vaqtida ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriy chora hisoblanadi, chunki buning natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1) Amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish. Hali innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga tadbiq etilmagan kezlarda chet tili o'qitish jarayonida faqatgina "doska va mel" tamoyildan foydalanilgan. Bunda o'qituvchi tomonidan bir nechta gaplar doskaga yozib ko'rsatilgan va tahlil etilgan. Hozirgi kunda esa internet sahifalari uzatayotgan autentiv manbalar va til o'qitishga asoslangan kompyuter dasturlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarda o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyati tug'ildi.

2) Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish. Innovatsion texnologiyalar talabalarning mustaqil izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Zamonaviy o'qitish metodlari o'quvchilarni mustaqil o'rganishga undamoqda. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilar faqatgina kitobda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasligi, o'z bilimlarini o'zlarini izlangan holda kengaytirib borishlari zarur;

3) Ingliz tili darslariga qiziqishni oshirish. Chet tili o'qitish jarayonlariga Innovatsion texnologiyalarning tadbiq natijasida o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshdi, buning asosiy sababi darslar talabalarning faol ishtiroti asosida, turli multimedia vositalari va qiziqarli metodlar asosida tashkil etilayotganligidir;

4) Talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish. Zamonaviy ta'lim metodlari (misol uchun, "aqliy hujum", "munozara") o'quvchilarni tanqidiy va tahliliy fikrlashga chorlamoqda va o'z fikrlarini erkin bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ingliz tili darslarida turli innovatsion texnologiyalar, jumladan, internet saytlaridan foydalanish metodikasi tadqiq etilgan bo'lib, ularni darslarga tadbiq etish bo'yicha fikr va mulohazalar taklif etilgan.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Texnologik qurilmalarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi sababli chet tili darslarida matn bilan ishslash jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Quyida biz hozirgi kunda chet tilida o'qish darslarini tashkil etishda foydalanilishi mumkin bo'lgan innovatsiyalar xususida fikr yuritiladi. "Chet tilini o'qitish jarayonida matn bilan ishslashning innovatsion metodlari" nomli risolada mualliflar S. Kapsargina, Zh. Ahmedova, J.Olentsovalar zamonaviy texnologiyalar asosida xorijiy tildagi matnlar bilan ishslash jarayonini o'z nuqtai nazarlarida tahlil etganlar. Ularning asosiy e'tiborlari LMS moodle kompyuter dasturi yaratgan imkoniyat va qulayliklarni amaliyotga tadbiq etish va yangicha o'qib tushunishga oid metodlarni taklif etishdir. Maqolada ta'kidlanishicha, LMS Moodle talabalarning o'qib tushunish malakalarini takomillashtirishga ko'mak beribgina qolmay, balki turli til ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda o'qitishga ixtisoslashtirilgan dastur hisoblanadi. "O'qib tushunish darslarini tashkil etishda 4 ustuvor metoddan foydalanish mumkin [3]"-deb ta'kidlab o'tadi mualliflar.

1. **View reading** (kuzatuv o'qish metodi). Bu metod o'quvchilarda matn haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda qo'l keladi. LMS Moodle tizimi yordamida yozma matnlar audio matn shaklida talabalar e'tiboriga havola qilinishi mumkin. Mana shunday audiovizual ko'mak talabalarga matnning qisqacha mazmunini tushuntirish uchun xizmat qiladi.

2. **Introductory reading** (tanishuv o'qish metodi). Bu usulda matnni mutoala qilishning maqsadi qisqa vaqt ichida matnning umumiylarini ulab olishdir. Lug'atga boyligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar yordamida talabalar matnda keltirilgan yangi so'zlar bilan tanishib chiqadilar. LMS Moodle dasturida yaratilgan qulayliklardan biri "quizz testlar" bo'limi

## PEDAGOGIKA

o'quvchilarning yangi so'zlarni o'rganganlik darajalarini tekshirishda, shuningdek bilimlarini mustahkamlashda samarali natijalarga olib keladi. Bu mashg'ulotda talabalar yangi so'zlar va iboralarning to'g'ri izohlarini tanlislari kerak bo'ladi.


3. **Learning reading** (o'rganuv o'qish metodi) metodida talabalar matnda berilgan ma'lumotlarning to'liq va batafsil ma'nosini tushunib oladilar. Bu metod "content-based approach of teaching a foreign language" ( chet tilini o'qitishda mazmunga asoslangan yondashuv) ko'lamida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki "learning reading" metodida ham matn mazmuni, undagi mantiqiy va grammatik bog'lanishlar, yangi so'zlar bilan bir qatorda boshqa fan sohalariga oid bo'lgan ma'lumotlar ham o'rganib boriladi, talabalarning umumiyl dunoqarashlari kengayib boradi, boshqa fan sohalaridagi bilimlari ham oshiriladi. Bir qator savol shakllari ("drag and drop into the text", "true/false questions", "short answers") bu metodda qo'llanilishi mumkin.

4. **Search reading** (kichik faktlarni aniqlash uchun o'qish). Bu metod uchun biz 2 xil mashg'ulotlarni taklif etishimiz mumkin.

1) *Embedded answers* (yopiq javoblar). Bu mashg'ulotda talabalarga o'z fikrlarini bayon etishlari uchun bir qator ochiq savollar taklif etilishi mumkin? Misol uchun, What does the author imple by mentioning "Everest syndrom"? Bu turdagи savollar matnni chuqur analitik tahlil qila olish darajasini belgilash va matnda taklif etilgan fikrlarga nisbatan o'z munosabatlarini yozma bayon qilishga undash vazifasini bajaradi. Shu tarzda bir vaqtning o'zida talabalarga o'qish va yozish ko'nikmalari integratsiyalashgan holatda o'rgatiladi.

2) Keyingi mashg'ulot sifatida "sequencing", ya'ni matnda keltirilgan ma'lumotlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashlashtirish topshirig'i tavsiya etiladi. O'quvchilar juftlikda yoki kichik guruhlarda ishslashlari mumkin. Ularning vazifasi matnning umumiyl mazmunidan kelib chiqib berilgan gaplarni to'g'ri birin-ketinlikda joylashtirishdir. Bu mashg'ulot post-reading (yakunlovchi bosqich) sifatida matn mohiyatini o'quvchilarning onglarida qay tartibda gavdalanganini ko'rsatadi.

Internet tarmog'ida bunday veb-sahifalar bir qancha bo'lib, ularning asosiy maqsadi pedagog va til o'rganuvchilarga qulayliklar yaratishdir. Masalan, Linguapress.com veb-sayti ham talabalar, ham o'quvchilar uchun juda ham qulay va foydali sahifa hisoblanadi. Bu sahifada autentiv materiallar, matnlar, har bir matn uchun yangi so'zlar lug'ati, matn ustida ishslash uchun mashg'ulotlar, interaktiv mashqlar, matnning audio formatdagi shakli, grammar va talaffuz qoidalar va eng e'tiborlisi, pedagoglar uchun metodik ko'rsatmalar, dars rejalari nashr qilinadi.



Talabalarning bilim darajasidan xulosa chiqargan holda, matn va mashg'ulotlarning murakkablik darajalari tanlab olinishi mumkin.

1-rasm. Linguapress.com saytida ishslash jarayonidan namuna. [5]

Har bir o'qish darslari 3 bosqichda o'qitilish metodi asosida yaratilgan bo'lib, pre-reading, while-reading, post-reading mashg'ulotlariga ega.

- 1) Pre-reading mashg'uloti sifatida matnning audio shakli taqdim etiladi, o'quvchilar matnning audio shaklini eshitgan holda matn haqida ilk tasavvurlarga ega bo'ladilar.
- 2) While-reading bosqichi autentiv matnni o'qish bosqichi bo'lib, matn yuzasidan yangi so'zlar ham izohlari bilan ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, bu bosqichda turli topshiriqlar, jumladan multiple-choice (bir nechta variantlardan birini tanlash), gap-filling (bo'shliqlarni to'ldirish) kabi mashg'ulotlar veb-sayt tomonidan tavsiya etiladi.

2-rasm. Matn yuzasidan "gap filling" mashg'uloti. [5]

- 3) Post-reading bosqichida matn yuzasidan xulosalar chiqarilib, ochiq munozara uchun savollar beriladi. Bu orqali talabalarining gapiresh kompetensiyasi rivojlantiriladi hamda talabalarda o'qigan matnlari borasida umumiy yaxlit tushuncha hosil bo'ladi. Shu bilan birga, o'qishning so'nngi bosqichida, matn grammatic va talaffuz jihatidan tahlil etiladi, misol uchun quyidagi rasmda biz "there" va "their" so'zlarining talaffuz jihatdan o'xshashligi ko'rsatilganligi, va ularni talaffuz qilishda e'tiborli bo'lish talab etilishi to'g'risida ogohlantirishni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek matnda alohida ko'rsatilgan modal fe'llar (can, could, should...) grammatic jihatdan tushuntirib o'tiladi.

## PEDAGOGIKA

**For teachers:**

**Language points:**

**Modal verbs.** This text is rich in modal verbs; these are highlighted in red. When teaching about modal verbs, it is best to use the broad **semantic** definition of what modal verbs are, not the narrow **linguistic** definition. Thus modal verbs are "helper verbs which affect the meaning of a main verb, by adding a quality to the action, most commonly possibility, probability, obligation or recommendation, or futurity" (see **Modal verbs** in the Linguapress **Descriptive Grammar of English**), and the list of such modal verbs includes not just *can*, *must* and others, but also *be able to*, *have to*, *need to* and some more.

Note in particular the less common forms that are illustrated in this article, *need not* and *will have to*. Remind students that most modal verbs are never followed by *to*, but a small number (*ought to*, *have to*, *be able to*) are always used with *to*. *Need* is a special case (See Descriptive Grammar of English §1.15.2.)

**Creative writing:**

Using information from the article, and any other information that pupils may have, ask them to write down four sentences starting:  
*If we want to stop climate change, we must .....*  
 And four sentences starting:  
*If we want to stop climate change, we cannot / must not .....*

**Interactive gap-fill exercise above.**

This exercise can be taken in many different ways. One good way, if your classroom is suitably equipped, is to project the exercise onto the whiteboard and ask students to write down 24 answers in order on a sheet of paper. Then, one by one, click on the options so that pupils can correct or change their answers. Finally explain the right answers which are in the original text.

This exercise is best done if you make sure that students can no longer see the original text. Some teachers however may simply ask pupils to refer back to the original text to find the right answers.

## 3-rasm. Linguapress.com saytidagi metodik ko'rsatma. [5]

Mazkur veb-saytning yana bir afzallik tomoni shundaki, har bir matn so'nggida ingliz tili pedagoglari ha metodik yordam beriladi, yana matn yuzasidan berilgan topshiriqlar qay yo'sinda (yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlarda) tadbiq etilsa, samarali natijalarga erishish mumkin. Hamda mazkur veb-sahifada tayyor dars ishlanmalari, dars rejalarini mavjud bo'lib, o'qish darslarini yanada boyitish, ulardan darslarni zamanoviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun foydalanish mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarni o'qish darslariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni chet tilida ko'proq mutolaa qilishlariga undash maqsadida o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni yuzaga keltiruvchi texnologiyalardan dars davomida foydalanish tavsiya etiladi. Bunday fikrlar qozoq tadqiqotchilar M.B.Shoimanova va Z.Muratovalarning "Maktabda ingliz tili sinflarida o'qishni o'rgatishga yangicha yondashuv" nomli maqolasida ham qayd etilgan. Ularning fikricha, o'quvchilarni chet tilida o'qishga ruhlantirish uchun ularga o'z qiziqishlari doirasida qo'shimcha ma'lumot izlashga chorlovchi matnlarnigina tavsiya etish lozim. Tanqidiy fikrlashga asoslangan innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish o'quvchilarning nafaqat matndagi ma'lumotlarni eslab qolishini, balki uni tahlil qilib, xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham yuzaga chiqaradi. [4] Innovatsion texnologiyalar olamida shunday ko'makchilar mavjudki, ular yordamida o'quvchilar o'qilgan ma'lumotni tartiblashtirishlari, tizimlashtirishlari va qo'shimcha ma'lumotlarni ham o'rganib borishlari mumkin. Bular grafik tartiblovchilar ("graphic organizers") deb nomlanadi. Grafik tartiblovchilar o'quvchilarga o'qilgan ma'lumotni turli tomonidan ko'rish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bular ma'lumotlarni vizual jihatdan tushunarli holatda o'zaro mantiqiy bog'lanishlar asosida namoyish etishga, ularni murakkab grammatik unsurlar va so'zlardan holi ravishda ko'rsatib berishga yordam beradi. Bunday grafik elementlarni yaratish uchun [www.canva.com](http://www.canva.com), <https://miro.com> kabi sahifalardan foydalanish mumkin. Grafik tartiblovchilar o'qish davomida talabalar tomonidan mustaqil tarzda to'ldirilib, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy ta'lim xorijiy til o'qituvchilaridan faqatgina matnlarni zo'raki tarjima qila oladigan o'quvchilarni tarbiyalashni emas, balki mazkur tilda yozilgan har qanday matnlarni (jumladan, ilmiy, badiiy, publisistik) erkin tarjima qila oladigan, matnda o'rgangan so'zlarini amaliyotda qo'llay oladigan va eng muhimi chet tilida ravon so'zlasha oladigan, dunyoqarashi keng yosh avlodni yetishtirishni kutmoqda. Hozirgi kunda bu topshiriqni bajarish uchun xorijiy til o'qituvchilarida barcha kerakli shart-sharoitlar (texnik qurilmalar bilan jihozlangan xonalar, internet tarmog'idagi cheksiz resurslar va hakozo) mavjud.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Jamol Jalolov. "Chet tili o'qitish metodikasi", O'qituvchi", Toshkent-2012, 263b.
2. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». Т. 1.— М., 1974.— С. 67.
3. S. Kapsargina, Zh. Shmelova, J. Olentsova “Innovative methods of working with the text in the process of teaching a foreign language in a non-linguistic university”, Advances in economics, business and management research, volume 128.
4. M.B. Shoimanova, Z. Muratova “A new approach to teaching reading in English language classroom at school”, “Language and identity in the digital age: social media, online communication and language use”conference, Fergana-2024.
5. <https://linguapress.com>
6. <https://www.miro.com>